

**SURXONDARYO VILOYATI ZANG KANALI SUVI TARKIBINI ANALITIK
USULLAR YORDAMIDA ANIQLASH**

Qurbonova SH.B.-TerDu Kimyo fakulteti talabasi

Boltayev N. TerDU o'qtuvchisi

E-mail: shohidaqurbonova67@gmail.com

Zang kanali Surxondaryo viloyatidagi sug'orish kanali hisoblanadi. Kanal Arpapoya qishlog'i yaqinida Surxondaryo daryosidan suv oladi. Uzunligi 96 km bo'lib, suv o'tkazish imkoniyati 85m³/sek .Zang kanali Qadimgi kanallardan biri hisoblanadi . U kanal (taxminan 9-10-asrlarda qazilgan) bir necha marta qayta tiklangan.1912-yilda hozirgi Zang kanal qadimgi kanal o'rnida qazilgan. 30- yillarda Angor Talimaron,50-yillarda Beshqo'ton, Muzrabod massivlari o'zlashtirilishi bilan kanal kengaytirildi va uzaytirildi. Talimaron dan keluvchi tarmog'i Muzrabotsoyga qadar uzaytirilgan. 1967- yilda kanalning bosh qismida Jarqo'rg'on gidrauzeli qurildi. (Gidrauzel sistemasiga Zang kanal kiradi). Uchqizil suv omborini suv bilan taminlaydi va Termiz, Muzrabod tumanlaridagi 60 mingga yaqin yerni sug'oradi. Sug'orish mavsumidan boshqa davrda kanal suvi Uchqizil suv omboriga beriladi. Kanalning 40 kmga yaqin qismiga beton qoplamasi yotqizilgan . Tadqiqotlar o'tkazish natijasida Surxondaryo viloyati Zang kanali oqova suvi tarkibida quyidagi elementlar aniqlandi.

| N ^o | Element nomi | massa (mg/kg) |
|----------------|--------------|----------------|
| 1. | Fe (II) | 0,073 |
| 2. | Fe (III) | 0,0069 |
| 3. | Cu | 0,016 |
| 4. | Ag | 0,0008 |
| 5. | Hg | 0,00027 |
| 6. | Cd | 0,0081 |
| 7. | Mn | 0,0091 |
| 8. | Cr | 0,0008 |

Bu metallar odam organizmi uchun foydali hisoblanadi. Keyingi yillarda insonlar e'tiborsizligi sababli kanal suviga turli xildagi maishiy chiqindilar tashlanib suv ifloslantirilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Temir>
2. To'rayev X.X, Turabov N.T, Alimnazarov B.X. "Analitik kimyo laboratoriya mashg'ulotlari". Toshkent-2019.
3. Fayzullayev O. "Analitik kimyo" Toshkent – 2006.
4. Vasilyev P.V. "Analitik kimyo" Toshkent- 1999.